

## XO'JALIK YURUTUVCHI SUBEKTLARDA QO'SHILGAN QIYMAT VA UNGA SOLINADIGAN SOLIQ

*Chorshanbaev Umurzoq Qaynarovich,  
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi,  
Muratjonova Lobar, Mallaxanov Javohir  
Guliston davlat universiteti talabalari*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada qo'shilgan qiymat tushunchasi va unga solinadigan soliq (QQS) mohiyati, maqsadi va uni qo'llash tartibi haqida ma'lumotlar beriladi. QQS ning soliq to'lovchilari, hisob-kitob qilish qoidalari, va uning iqtisodga ta'siri hamda rivojlanayotgan mamlakatlardagi rolini ochib berish maqsad qilingan. Ushbu mavzu iqtisodiy va moliyaviy sohalaridagi mutaxassislar, tadbirkorlar va soliq siyosatchilari uchun muhim ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:** Qo'shilgan qiymat, QQS, soliq tizimi, iqtisodiy rivojlanish, soliq to'lovchi, hisob-kitob, soliq siyosati, tadbirkorlar, soliq nazorati.*

## VALUE ADDED IN ECONOMIC ENTITIES AND THE TAX IMPOSED ON IT

*Chorshanbaev Umurzok Kaynarovich,  
Gulistan State University teacher,  
Muratjonova Lobar, Mallakhanov Javohir  
Gulistan State University students*

***Abstract:** This article provides information about the concept of added value and the essence, purpose and procedure of its application. It aims to reveal the taxpayers, calculation rules, and its impact on the economy and its role in developing countries. This topic is important for experts in the economic and financial spheres, entrepreneurs and tax politicians.*

***Key words:** Value added, VAT, tax system, economic development, taxpayer, calculation, tax policy, entrepreneurs, tax control.*

# ДОБАВЛЕННАЯ СТОИМОСТЬ У ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ И НАЛОГ НА НЕЕ

*Чоршанбаев Умурзок Кайнарлович,*

*преподаватель Гулистанского государственного университета,*

*Муратжонов Лобар, Маллаханов Джавахир*

*Студенты Гулистанского государственного университета*

*Аннотация:* В данной статье представлена информация о понятии добавленной стоимости и сущности, цели и порядке ее применения. Целью исследования является раскрытие налогоплательщиков, правил расчета, его влияние на экономику и его роль в развивающихся странах. Данная тема важна для экспертов экономической и финансовой сферы, предпринимателей и налоговых политиков.

*Ключевые слова:* Добавленная стоимость, НДС, налоговая система, экономическое развитие, налогоплательщик, расчет, налоговая политика, предприниматели, налоговый контроль.

**Kirish.** Qo'shilgan qiymat solig'i birinchi bo'lib 1954 yilda Frantsiyada joriy qilingan. Hozirgi vaqtda ushbu soliq dunyoning ko'pgina mamlakatlarida asosiy soliqlardan biridir. O'zbekistonda ham ushbu soliqning ahamiyati katta: u davlat byudjetining tahminan uchdan bir qismidan ko'prog'ini tashkil etadi [1].

Nima uchun ushbu soliq "qo'shilgan qiymat solig'i" deb ataladi? Chunki u ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish jarayonida inson mehnati bilan qo'shilgan qiymatdan olinadi.

Tikuv korxonasi matoning qiymatiga korxonada xodimlari mehnati (dizaynerlar, tikuvchilar, marketologlar, boshqaruv xodimlari va h.k.) natijasida yangi qiymat qo'shiladi va tikuv mahsulotlari hosil bo'ladi. U tikuv korxonasi tomonidan xom ashyo va material sifatida olingan mato, ip, tugmalar sotib olingan qiymatdan ancha qimmatroqqa sotiladi. **Sotilgan mahsulot qiymati bilan mol yetkazib bervuchilardan sotib olingan xom ashyo va materiallar (ularni yaratishda korxonada o'z hissasini qo'shmagan) qiymati orasidagi farq qo'shilgan qiymatdir.**

Agar korxonaga hech narsa ishlab chiqarmasa, aytaylik, savdo bilan shug'ullansa, unda qo'shilgan qiymat yuzaga keladimi? Ha, yuzaga keladi, u tovarni ma'lum bir narxda masalan, xorijdan sotib olib, uni respublikaga olib keladi, bojxonadan o'tkazadi, o'zining savdo nuqtalariga tarqatib chiqadi va qimmatroq narxda sotadi. Ushbu farq (savdo ustamasi) savdo korxonasi tomonidan qo'shilgan qiymat bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, qo'shilgan qiymat – bu tovar qiymatining korxonaga tomonidan yaratilgan qismidir. Agar biz mamlakatdagi barcha tashkilot va korxonalar tomonidan yaratilgan qo'shimcha qiymatlarni yig'ib chiqsak, unda iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasini ko'rsatuvchi – yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichiga ega bo'lamiz.

***Turli tovarlarning qiymatini ikkiga ajratish mumkin - mavjud qiymatga (boshqa tashkilotlardan sotib olib ishlatilgan xom ashyo, yoki sotib olingan tovar qiymati) va ishlab chiqarish va sotish jarayonida yangi qo'shilgan qiymatga.***

Xazinasini ko'proq qo'shilgan qiymat solig'i hisobiga to'ldiriladigan har qanday davlat ushbu qo'shilgan qiymatning yuqori bo'lishidan manfaatdordir. Tadbirkor dastlabki materialni olib, unga o'zining bilimini, malakasi va resurslarini qo'llagan holda o'ta sifatli, foydali va buning natijasida qimmat bo'lgan mahsulotni yaratishi davlatga ham jamiyatga ham foydalidir.

Qo'shilgan qiymat – bu bozor munosabatlari sub'ekti bo'lgan har bir korxonaga dastlabki tovar bilan ayrim amallarni bajarib, uni keyinchalik sotish maqsadida unga qo'shgan foydasidir. Bu konveyerga o'xshaydi. Dastlab xom ashyo va materiallarni ishlab chiqaruvchilar qo'shilgan qiymatni yaratadilar. Ular xom ashyo va materiallarni qayta ishlovchilarga sotadilar. Ishlab chiqaruvchilar biror-bir tovarni ishlab chiqib – ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarga sotilar. Ulgurji savdogarlar chakana savdo bilan shug'ullanuvchilarga, ular esa iste'molchi bo'lgan siz va bizga sotadilar. Har bir tijorat tuzilmasi olgan mahsulotini xom

ashyo sifatida qabul qilib, ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish, yoki savdo) jarayonida uning qiymatiga o'zining yangi qiymatini qo'shadi.

### **Qo'shilgan qiymatni hisoblash usullari**

### **Qo'shilgan qiymatni quyidagi tarzda hisoblab chiqarish mumkin.**

Sotilgan tovarlar (ish, xizmatlar) qiymatidan mol yetkazib beruvchilardan sotib olib, foydalanilgan xom-ashyo va materiallar qiymatini ayirish yo'li bilan. Quyidagi formulaga ega bo'lamiz:

$$K\kappa = C\kappa - \text{И}\kappa$$

#### **Bu yerda:**

**Kκ** - qo'shilgan qiymat;

**Cκ** - sotilgan tovar(ish,xizmatlar)lar qiymati;

**Иκ** - iste'mol qilingan moddiy resurslar va tashki ish (xizmat)lar qiymati.

### **Qo'shilgan qiymat solig'ining ta'rifi**

**Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)** bu – tovar(ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotishning barcha bosqichlaridan olinadigan ko'p pog'onali bilvosita soliqdir.

Nima uchun u bilvosita? Chunki u bevosita soliqlar kabi korxonada daromadidan to'lanmaydi.

QQS boshqa bilvosita soliqlar kabi tovar, ish va xizmatlar iste'molchilari tomonidan to'lanadi:

- sotuvchi realizatsiya qilishda tovar (ish, xizmat)larining narxini hujjatlarda (hisobvaraqa-fakturada) alohida ko'rsatilgan soliq summasiga oshiradi;
- xaridor tovar (ish, xizmat)lar qiymatiga qo'shilgan soliqni to'laydi;
- sotuvchi QQSni hisoblaydi va xaridordan olingan mablag'lar hisobidan uni byudjetga o'tkazib beradi.

Quyida shartli misolni keltiramiz. Faraz qilamizki, korxonada kiyim-kechak tikish bilan shug'ullanadi va u buning uchun mato sotib oladi.

Mol etkazib beruvchidan sotib olinayotgan matoning narxi 100 mln. So'mdeylik, lekin uni xaridor korxonada 112 mln. so'mga sotib oladi, chunki u mato siymatiga 12% miqdorida QQS hisoblashga majbur (100 mln. x 12%).

Shunday qilib, xaridor korxonada 100 mln. so'm mato qiymatini hamda 12 mln. so'm QQS to'laydi. Mol etkazib beruvchi xaridor korxonadan olgan pul mablag'ini quyidagicha taqsimlaydi: 100 mln. so'mni o'ziga olib, 12 mln. so'mni davlatga topshiradi. U aynan xaridordan olgan soliq summasini byudjetga o'tkazadi. Demak QQSni xaridor korxonada to'laydi. Bunday turdagi soliqlar bilvosita soliqlar deb ataladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo'llaymiz va soliq summasini olamiz. Uni quyidagi formula shaklida ifodalash mumkin:

$$QQS = QQ \times St$$

Bu erda:

QQS – qo'shilgan qiymat solig'I;

QQ – qo'shilgan qiymat;

St – soliq stavkasi.

Qo'shilgan qiymatni aniqlash usulidan foydalangan holda soliq hisoblashning quyidagi formulasini olamiz:

$$QQS = (SQ - IQ) \times ST$$

Bu erda:

QQS – qo'shilgan qiymat solig'I;

SQ – sotilgan tovar (ish, xizmat) lar qiymati;

IQ – iste'mol qilingan moddiy resurslar va tashqi ish (xizmat) lar qiymati;

St – soliq stavkasi.

Qavslarni ochib quyidagi formulani keltirib chiqaramiz:

$$QQS = SQ \times St - IQ \times St$$

Ayiriladigan “IQ x St» nima ma’noni anglatadi? Xaqiqatda bu xaridor tomonidan iste’mol qilingan moddiy resurslar, ish va xizmatlarni sotib olishda to’langan QQS summasidir. Ya’ni bizning QQS hisoblash formulamiz quyidagicha bo’ladi:

$$\text{To'lanadigan QQS} = \text{SQ} \times \text{St} - \text{QQS to'langan.}$$

Bu erda:

QQS to’lanadigan – byudjetga to’lanishi lozim bo’lgan qo’shilgan qiymat solig’I;

SQ – sotilgan tovar (ish, xizmat) lar qiymat;

St – soliq stavkasi;

QQS to’langan – soliq to’lochi tomonidan iste’mol qilingan moddiy resurslar, ish va xizmatlarni sotib olishda to’langan QQS summasi.

O’zbekistonda aynan shu formula orqali QQS hisoblanadi. Har bir korxonada qo’shilgan qiymatning o’zini hisoblab chiqarishning zarurati yo’q. Sotish hajmi va iste’mol qilingan resurs (ish, xizmat)lar bo’yicha to’langan QQSni bilishning o’zi yetarlidir.

### **Fikr-mulohazalar:**

#### **Xo‘jalik yurutuvchi subyektlarning iqtisodiy samaradorligi:**

Qo’shilgan qiymatga solinadigan soliq tizimi, iqtisodiyotning samarali ishlashini ta’minlashda, xo‘jalik subyektlariga iqtisodiy samaradorlikni oshirishga undaydi. Chunki har bir bosqichda soliq to’lovchilarga qo’shilgan qiymatni qamrab olish orqali ular raqobatni kuchaytiradi va narxlarni optimallashtiradi.

#### **Davlat byudjetini tushadigan mablag’ miqdorini oshirish:**

QQS davlat budjetiga mablag’ kiritishning muhim manbai bo’lib, davlatning ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu soliqqa solinadigan mahsulotlar va xizmatlarning narxining oshishi, iste’molchilarga to’lanadigan narxni oshirishi mumkin, bu esa iste’mol talabini kamaytirishi mumkin.

## **Xalqaro iqtisodiy aloqalar:**

QQS tizimi iqtisodiy integratsiya va xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu tizim orqali davlatlar o'z iqtisodiy tizimlarini modernizatsiya qilish va global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

## **Xulosa**

Xo'jalik yurutuvchi subyektlar tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat va unga solinadigan soliq (QQS) iqtisodiyotning samarali ishlashida muhim o'rin tutadi. QQS tizimi davlatning moliyaviy bazasini shakllantirishga yordam beradi, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi va raqobatbardosh mahsulotlarning ishlab chiqarilishini ta'minlaydi. Shuningdek, QQS tizimi iqtisodiyotdagi shaffoflikni oshiradi va soliq yig'ish jarayonlarini osonlashtiradi. Shu bilan birga, mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va global bozorlar bilan integratsiya qilish uchun QQS tizimi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

## **Foydalanilgan Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi "Soliq kodeksi" 30.12.2019 y.
2. Soliq solish asoslari. I.Axmadxonov. «Kafolat print company» nashriyoti. 2024 y. 238 b.
3. **Aliyev, A. (2020).** "O'zbekiston iqtisodiyotida qo'shilgan qiymat va uning soliq tizimidagi o'rni." *Iqtisodiy Tahlil*, 5(2), 45-60.
4. **G'ulomov, D. (2019).** "Soliq tizimi va iqtisodiy o'sish: qo'shilgan qiymatga solinadigan soliq." *Xalqaro Soliq Jurnal*, 12(3), 72-80.
5. **Zaripov, R. (2018).** "Soliq siyosatining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri: qo'shilgan qiymat solig'i misolida." *O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish masalalari*, Toshkent, 104-112.
6. **Yusupov, F. (2021).** "Markaziy Osiyo mamlakatlarida soliq siyosati va qo'shilgan qiymat solig'ining iqtisodiy o'sishga ta'siri." *Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar*, 6(1), 98-106.